



## Termiz iqtisodiyot va servis universiteti yoshlar yetakchilari faoliyatini tashkil etish to'g'risidagi

### NIZOM

#### I bob. Umumiy qoidalar

1.1. Mazkur Nizom Termiz iqtisodiyot va servis universiteti (keyingi o'rinda - Universitet) yoshlar yetakchilarining (keyingi o'rinda - Yetakchilar) faoliyat yuritishi, vazifalari, huquq va majburiyatlari belgilaydi.

1.2. **Yoshlar yetakchisi** - universitet (fakultet) ma'muriyati hamda talabalar o'rtasida o'zaro hamkorlikni ta'minlovchi, talaba-yoshlarning huquq va manfaatlarini ifoda etuvchi hamda ularni himoya qiluvchi vakildir.

1.3. Yoshlar yetakchilari o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "Ta'lim to'g'risida"gi, "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi qonuni, Universitet Nizomi, Ichki tartib qoidalari, Odob axloq kodeksi hamda ushbu Nizom talablari asosida amalga oshiradi.

1.4. Yoshlar yetakchilari o'z faoliyatida quyidagi tamoyillarga qat'iy rioya qiladi:

- **qonuniylik** - barcha harakatlari va qarorlarini amaldagi qonunlar, universitet ichki tartib-qoidalari va normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq amalga oshirish;

- **oshkoralik** - faoliyat natijalari, tadbirlar va qarorlar haqida talabalar va rahbariyatni doimiy xabardor etish;

- **hamjihatlik** - talabalar bilan birga faoliyat olib borish, ularning fikri va manfaatlarini hisobga olish hamda jamoaviy ishlashni ta'minlash.

#### II bob. Yoshlar yetakchilari faoliyatining asosiy maqsad va vazifalari

2.1. Universitet yoshlar yetakchilari faoliyatining **asosiy maqsadi** – talabalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularning ijtimoiy, ma'naviy va intellektual salohiyatini rivojlantirish hamda universitet hayotida faol ishtirokini ta'minlashdan iborat.

2.2. Universitet yoshlar yetakchilari faoliyatining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- talaba-yoshlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish va ularni islohotlar jarayoniga jalb etish;
- universitetda korrupsiyaga qarshi murosasizlik muhitini yaratishda talabalar nazoratini o'rnatish;
- yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish (5 ta muhim tashabbus doirasida);
- talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatiga bo'lgan qiziqishini tizimli qo'llab-quvvatlash;
- talaba-yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish va sport-sog'lomlashtirish tadbirlarini tashkil etish;
- talabalarning huquqiy savodxonligini oshirish, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilishga ko'maklashish;
- iqtidorli va tashabbuskor yoshlarni aniqlash, ularni qo'llab-quvvatlash hamda rag'batlantirish tizimini yo'lga qo'yish;
- talabalar o'rtasida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni targ'ib qilish, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar tashkil etish;
- talabalarning muammolari, taklif va tashabbuslarini o'rganish hamda ularni tegishli rahbariyatga yetkazish;
- yoshlar o'rtasida jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olish bo'yicha profilaktik ishlarni olib borish;
- universitetda do'stona va inklyuziv muhitni shakllantirish, turli ijtimoiy toifadagi talabalarni qo'llab-quvvatlash;
- talabalar bandligini ta'minlash, ularni amaliyot, startap va tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish;
- talabalar o'rtasida axborot madaniyatini oshirish, zararli g'oya va axborot tahdidlariga qarshi immunitetni kuchaytirish;
- talabalar turar joylarida ma'naviy-axloqiy muhitni yaxshilash va tartib-intizomni mustahkamlash;
- universitet miqyosida o'tkaziladigan madaniy, ma'rifiy va ijtimoiy loyihalarda faol ishtirok etish va ularni muvofiqlashtirish.

### **III bob. Yoshlar yetakchisining faoliyat yo'nalishlari**

3.1. Universitet yoshlar yetakchisi quyidagi yo'nalishlar bo'yicha faoliyat yuritadi

#### **a) Tashkiliy-tarbiyaviy yo'nalish:**

- talabalar o'rtasida ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarni tashkil etish;
- davlat yoshlar siyosati doirasidagi dasturlarni universitet miqyosida amalga oshirish;
- universitet rahbariyati va talabalar o'rtasida samarali muloqot va hamkorlikni yo'lga qo'yish;
- talabalarda fuqarolik pozitsiyasi va ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirish.

#### **b) Yoshlar tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash yo'nalishi:**

- talabalarning ilmiy, ijodiy, innovatsion va ijtimoiy loyihalarini aniqlash va rivojlantirish;

- "5 muhim tashabbus" doirasidagi loyihalarni amalga oshirish;
- talabalar klublari, volontyorlik harakatlari va jamoat birlashmalari faoliyatini muvofiqlashtirish;

- iqtidorli yoshlarni rag'batlantirish va tanlovlarga tayyorlash.

**c) Ijtimoiy himoya va qo'llab-quvvatlash yo'nalishi:**

- Ijtimoiy himoyaga muhtoj talabalarni aniqlash va ular bilan manzilli ishlash;

- stipendiya, moddiy yordam va turar joy masalalarida ko'maklashish;

- inklyuziv muhitni shakllantirish va teng imkoniyatlarni ta'minlash.

**d) Madaniy-ma'rifiy va ommaviy tadbirlar yo'nalishi:**

- bayram tadbirlari, sport musobaqalari, intellektual o'yinlar va tanlovlar tashkil etish;

- talabalarni respublika va xalqaro miqyosdagi tanlov hamda forumlarga tayyorlash;

- talabalarining bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish.

**e) Profilaktika va sog'lom turmush tarzi yo'nalishi:**

- huquqbuzarlik, giyohvandlik, ekstremizm va boshqa salbiy illatlarning oldini olish;

- talabalar o'rtasida huquqiy savodxonlikni oshirish;

- sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish va sport faoliyatini qo'llab-quvvatlash.

**f) Talabalar turar joylari bilan ishlash yo'nalishi:**

- talabalar turar joylarida ma'naviy-axloqiy muhitni mustahkamlash;

- yashash sharoitlarini o'rganish va takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

- tartib-intizomni nazorat qilish va muammolarni bartaraf etishda ko'maklashish.

**g) Axborot-tahliliy va hisobot yo'nalishi:**

- o'tkazilgan tadbirlar va loyihalar bo'yicha hisobotlar tayyorlash;

- yoshlar siyosati doirasidagi reja va dasturlar ijrosini monitoring qilish;

- talabalar muammolari va takliflarini tahlil qilish.

**h) Hamkorlik va tashqi aloqalar yo'nalishi:**

- boshqa OTMlar yoshlar yetakchilari bilan tajriba almashish;

- yoshlar ishlari agentligi va mahalliy hokimiyat organlari bilan hamkorlik qilish;

- nodavlat notijorat tashkilotlari va jamoatchilik tuzilmalari bilan qo'shma loyihalarni amalga oshirish.

## **IV bob. Yetakchilarning huquqiy maqomi va vakolatlari**

### **4.1. Yetakchilar quyidagi huquqlarga ega:**

- Universitet Kengashi, rektorat va boshqa kollegial yig'ilishlarda yoshlar masalalariga oid masalalarni ko'rib chiqishda ishtirok etish, takliflar kiritish hamda belgilangan tartibda ovoz berish;

- Talabalarga nisbatan qo'llanilayotgan intizomiy jazo choralarining qonuniyligi va adolatliligini ko'rib chiqish jarayonida ishtirok etish;

- O'z faoliyatini samarali tashkil etish maqsadida o'ziga birlashtirilgan xizmat xonasi hamda universitetning moddiy-texnik bazasidan (majlislar zali, axborot-resurs markazi, sport inshootlari va boshqalar) bepul foydalanish;
- "Rektor stipendiyasi"ga nomzodlarni tavsiya etish hamda taqdim etilgan tavsiyanoma asosida ularning hujjatlari ko'rib chiqilishida ishtirok etish;
- Talabalarni tuman, viloyat, respublika va xorijiy safarlarga tavsiya etish hamda nomzodlar ro'yxatini shakllantirish jarayonida ishtirok etish;
- "Qalqon" jamoatchilik guruhi tarkibini shakllantirishda tavsiyanoma berish va nomzodlarni ilgari surish;
- Yengil turdagi huquqbuzarlik sodir etgan va profilaktik hisobga olingan talabalarni ijobiy tavsiyanoma asosida (profilaktika inspektori xulosasi bilan birgalikda) hisobdan chiqarish masalasini ko'rib chiqishda ishtirok etish;
- Talabalarining huquq va manfaatlarini himoya qilish maqsadida universitet rahbariyatiga rasmiy murojaatlar kiritish;
- O'z vakolati doirasida talabalar yig'ilishlari, forumlar va muhokamalarni chaqirish;
- Yoshlar masalalariga oid normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqishda takliflar berish.

#### **4.2. Yetakchilarning majburiyatlari quyidagilardan iborat:**

- Universitetda madaniy, ma'rifiy, ilmiy, sport va ijtimoiy tadbirlarni rejalashtirish hamda tashkil etish, talabalarining ijtimoiy faolligini oshirish va ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish;
- Volontyorlik harakatlari, xayriya aksiyalari va ijtimoiy loyihalarni yo'lga qo'yish hamda talaba-yoshlarni jamiyat hayotida faol ishtirok etishga jalb etish;
- Tashkilot faoliyati to'g'risida talabalarni muntazam xabardor qilib borish, axborot-kommunikatsiya vositalari va ijtimoiy tarmoqlar orqali samarali muloqotni yo'lga qo'yish;
- O'zining kasbiy va yetakchilik salohiyatini muntazam ravishda oshirib borish, treninglar, seminarlar va forumlarda ishtirok etish, boshqa oliy ta'lim muassasalari yoshlar yetakchilari bilan tajriba almashish;
- O'tkazilgan tadbirlar va amalga oshirilgan loyihalar bo'yicha belgilangan tartibda hujjatlarni rasmiylashtirish, hisobotlar tayyorlash hamda ularni arxivlash;
- Har oyda kamida bir marta rektor yoki tegishli prorektorga amalga oshirilgan ishlar yuzasidan yozma hisobot va tahliliy ma'lumot taqdim etish;
- Talabalar o'rtasida jinoyatchilik, huquqbuzarlik, zararli odatlar va turli salbiy illatlarning oldini olish bo'yicha profilaktik tadbirlar tashkil etish;
- Talabalarining huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularning murojaatlarini o'rganish va muammolarini hal etish choralarini ko'rish;
- Universitet ichki tartib-qoidalariga rioya etish va yoshlar siyosatiga oid normativ-huquqiy hujjatlar ijrosini ta'minlash.

#### **V bob. Yoshlar yetakchilarini tanlash va lavozimga tayinlash tartibi**

5.1. Har bir fakultetda fakultet dekanining yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat masalalari bo'yicha o'rinbosari tavsiyasiga asosan birinchi prorektor tomonidan tayinlanadigan fakultet yoshlar yetakchisi faoliyat yuritadi.

5.2. Fakultet yoshlar yetakchisi lavozimiga tayinlanadigan nomzodga quyidagi ijobiy talablarga ega bo'lishi lozim:

- yoshlar bilan ishlash amaliyotiga ega bo'lishi;
- yetakchilik va liderlik qobiliyatiga ega bo'lishi;
- notiqlik mahorati va tashabbuskorlik xususiyatlari;
- fidoyilik va mas'uliyatlilik;
- boshqaruv va tashkilotchilik qobiliyati;
- jamoatchilik bilan ishlash hamda ish yuritish bo'yicha bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi;
- muayyan amaliy ish tajribasiga ega bo'lishi;
- yoshlar tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan buzg'unchi g'oya va mafkuralar, ma'naviy tahdidlar va zararli illatlar haqida yetarli tasavvurga ega bo'lishi;
- mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlar, yoshlarga oid davlat siyosati hamda ta'lim-tarbiya jarayoniga doir normativ-huquqiy hujjatlar haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lishi.

5.2. Nomzod talabalar orasidan tanlab olinadi va belgilangan tartibda 1 (bir) yil muddatga tayinlanadi.

5.3. Yetakchining vakolat muddati tugagach, u qayta nomzod sifatida ko'rib chiqilishi mumkin.

5.4. Yetakchi o'z vazifalarini lozim darajada bajarmagan, Universitet ichki tartib-qoidalari, odob axloq kodeksi talablarini buzgan yoki o'z vakolatidan noto'g'ri foydalangan taqdirda belgilangan tartibda birinchi prorektor tomonidan lavozimidan ozod etilishi mumkin.

5.2. Yetakchi haftalik, oylik va yillik ish reja tuzadi hamda mazkur rejalar ijrosi bo'yicha har chorakda fakultet dekanining yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'yicha o'rinbosarlariga hisobot taqdim etadi.

## **VI bob. Rag'batlantirish va intizomiy javobgarlik**

6.1. Faol yetakchilar o'quv yili yakunida "Yilning eng faol yetakchisi" nominatsiyasi bo'yicha universitet budjetdan tashqari mablag'lari hisobidan **bazaviy hisoblash miqdorining 3 baravarigacha** bo'lgan miqdorda bir martalik pul mukofotlari bilan taqdirlanadi.

## **VII bob. Yakuniy qoidalar**

7.1. Ushbu Nizom Universitet rektorining buyrug'i bilan tasdiqlangandan so'ng kuchga kiradi.

7.2. Nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar Universitet rahbariyati tomonidan kiritilishi mumkin.

**KELISHILDI:**

**Yoshlar masalalari va ma'naviy- ma'rifiy  
ishlar bo'yicha birinchi prorektor**



**U. Xudayberdiyev**

**Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat  
va ma'rifat bo'limi boshlig'i**



**U. Choriyev**

**Bosh yuriskonsult**



**R. Rizaqulov**